

## BADIIY ASARLARDA BAXT KONSEPSIYASI

**Rahmatova Hilola**

Farg`ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o`qitish:

o`zbek tili yo`nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy asarlarda baxt konsepsiyasining ifodalanishi va talqin qilinishi tahlil etiladi. Unda o`zbek va jahon adabiyoti namunalarida baxt tushunchasining turli qirralari, qahramonlar hayoti va ichki kechinmalari orqali yoritilishi ko`rib chiqiladi. Shuningdek, baxtning ijtimoiy, ma`naviy va individual jihatlari, uning inson hayotidagi o`rni hamda mualliflar tomonidan berilgan falsafiy qarashlar tahlil qilinadi. Maqola natijasida badiiy asarlarda baxt konsepsiyasining mazmun-mohiyati ochib berilib, uning adabiyotdagi badiiy talqini yuzasidan xulosalar chiqariladi.

**Kalit so`zlar:** Baxt, baxt konsepsiyasi, falsafiy qarashlar, rivoyat, ertak, Susambil, Paulo Koelo, hayotiy qadriyatlar, ichki muvozanat, qanoat, ongli yashash, ma`naviyat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется выражение и интерпретация понятия счастья в произведениях искусства. Рассматриваются различные аспекты понятия счастья в образцах узбекской и мировой литературы, его освещение через жизнь и внутренний опыт героев. Также анализируются социальные, духовные и индивидуальные аспекты счастья, его роль в жизни человека и философские взгляды, представленные авторами. В результате статьи раскрывается сущность понятия счастья в произведениях искусства и делаются выводы относительно его художественной интерпретации в литературе.

**Ключевые слова:** Счастье, понятие счастья, философские взгляды, повествование, сказка, Сусамбил, Пауло Коэльо, жизненные ценности, внутреннее равновесие, удовлетворение, осознанная жизнь, духовность.

**Abstract:** This article analyzes the expression and interpretation of the concept of happiness in works of art. It examines the various aspects of the concept of happiness in samples of Uzbek and world literature, its illumination through the lives and inner experiences of heroes. It also analyzes the social, spiritual and individual aspects of happiness, its role in human life, and the philosophical views given by the authors. As a result of the article, the essence of the concept of happiness in works of art is revealed and conclusions are drawn regarding its artistic interpretation in literature.

**Keywords:** Happiness, concept of happiness, philosophical views, narrative, fairy tale, Susambil, Paulo Coelho, life values, inner balance, satisfaction, conscious living, spirituality.

Ma'lumki, baxt tuyg'usi o'zbek mentalitetida g'arbdan farqli o'laroq quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi. Baxt – mening bu dunyoga kelganim. Baxt bu – ota-onamning borligi. Baxt bu – musulmon bo'lganimiz. Baxt bu – yaxshi odamlar diydori. Odamlar baxt deganda ko'proq nimani tushunishadi? Har kim o'zining ongi, tafakkuri rivojiga qarab baxtni har narsada ko'radi. Ayollar asosan oilasining tinch-xotirjamligi, erining unga mehrmuhabbatli bo'lib, farzandlari barkamol bo'lishini, qizlar esa har tomonlama o'ziga mos kishini uchratishni baxt deb hisoblaydi. Baxtni boylik bilan o'lchab bo'ladimi? Yo'q, albatta, boylik baxt ko'rsatkichi emas. Masalan, bir buyuk rus olimi o'zining baxtini raketalar yaratishda ko'rgan. U oshxonalaridagi qoldiq ovqatlarni yeb kun ko'rgan. Lekin bunday sharoitda ham o'zini baxtli hisoblagan. O'ziga to'q bo'lish baxtni his qilish uchun ozgina omil bo'lishi mumkin. Odam ehtiyojlarining hech bo'lmaganda o'rtamiyona darajada qondirilishi ham baxtli bo'lish uchun zamin yaratadi. Ba'zan hamma narsasi yetarli odamlar ham o'zini baxtsiz his qiladi. Aslida esa, bu dunyoga inson bo'lib kelishning o'zi baxt, undan inson bo'lib ketish undan ham katta baxt. Afsuski, baxtning qadriga har doim ham yetavermaymiz. Erta bilan turib quyosh nurini ko'rishning o'zi katta baxt.

Badiiy asarni “muallifning farzandi” sifatida talqin etsak, har bir asarda muallifning u yoki bu darajada o'zligi aks etadi. Boshqacha aytganda, muallif o'zi yaratgan asariga

hayot haqidagi muayyan qarashlarini, xulosalarini singdiribyoradi. Ana shunday qarashlarning sirasida baxt haqidagi tasavvur muhim o‘rin tutadi. Baxt va baxtiyorlik konsepsiyasi badiiy adabiyotda ko‘hna talqinlardan biri. Folklorda ham, yozma adabiyotda ham bu boradagi tasvirlarni ko‘plab uchratish mumkin. Abadiy mavzular singari baxt konsepsiyasi davrlar osha badiiy asarlarda asosiy o‘rin tutib kelmoqda va mental jihatdan qaraganda ham mushtarak jihatlar ko‘p. Bularning barchasida INSON omili va uning butun umri davomida intilayotgani - baxtli hayot turadi. Baxt konsepsiyasining ildizlari xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgan miflar, ertak va dostonlarga borib taqaladi. Kuzatishlarimizdan, shunga amin bo‘ldikki, aslida xalq ertaklarining barchasida muayyan ma’noda baxt konsepsiyasi aks etadi. Ezgulik va yovuzlikning kurashi asosiga qurilgan va oxiri yaxshilikning g‘alabasi bilan yakunlanuvchi ertaklarning butun mazmun-mohiyatida baxt tushunchasining xalqona talqini o‘z ifodasini topgan. Ertaklarning kompozitsiyasi ham shunga monand, an’anaviy boshlanish, ayniqsa, an’anaviy tugallanish qismida bu mazmun yaqqol aks etadi. Ya’ni “murod-maqсадlariga yetibdi”, “umrlarining oxiriga qadar baxtli hayot kechirishibdi” kabi ta’birlarda hayotdan mamnunlik, baxtiyorlik yaqqol aks etib turadi. Hammamizga ma’lumki, “Susambil” baxt oshiyoni sifatida xalq orasida ham tez-tez tilga olinadi. Uning asosi esa shu nomdagi xalq ertagini taqazo qiladi. Ertak kompozitsion jihatdan, mazmun-mohiyatan baxtning ta’rif-tavsifiga mos keladi. O‘z xo‘jayinidan qadr topmagan, aziyat chekkan jonzotlarning qadr maskani, baxtiyorlik oshiyoni “o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i mo‘l, azob-uqubat yo‘q” – Susambil jannat maskan sifatida tasvirlanadi. Ertak kompozitsiyasi baxt maskaniga safar motivi asosiga qurilgan. Unda sarguzashtlik xususiyatlari mujassamlashadi. Asarning so‘nggida baxt haqidagi tasavvurlar kengayadi, to‘laqonli bo‘ladi. Ertak boshida faqat yemish, farovonlik bilan bog‘liq tasavvur, ertak so‘ngida yana-da boyiydi. Yashil, obod maskan, tinch-xotirjam hayot, eng muhimi, ruhan, fikran yaqinlar bilan birgalikdagi do‘st-inoqlikdagi baxtiyor hayot. Bularning barchasi asar nihoyasida katta bir falsafiy umumlashmaga olib keladi. Hatto jonzotlarning o‘z maskanlarini himoya qilish uchun birgalikda kurashishlari ham baxt. Avvalo, kurashish uchun xohish va jur‘atning bo‘lgani, qolaversa, kuchlarni birlashtira olganlik, kuchli va

ojiz tomonlarni sezib, ularni aniq maqsad sari to‘g‘ri yo‘naltira olishlik ham maqsadga, saodatga yetishishning biri ko‘rinishidir. Shu ma‘noda olganda, baxt bir o‘zing emas, ko‘pchilikning birgalikda baxtiyorligidir. Ertak bu jihatdan nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham muhim hayot sabog‘i bo‘la oladi.

Badiiy asarlar jihatidan bu masalaga to‘xtaladigan bo‘lsak, aynan bu holatga mos keluvchi braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning „Baxt kaliti“ mavzusidagi rivoyati mavjud. Ushbu rivoyat juda sodda syujet orqali chuqur hayotiy haqiqatni ochib beradi. Rivoyatda baxt — bu faqatgina zavq-shavq, boylik yoki tashqi go‘zalliklardan iborat emas deya tasvirlanadi. Shu bilan birga, u faqat mas‘uliyat, ehtiyotkorlik yoki vazifaga berilib ketish ham emas. Haqiqiy baxt — insonning hayot go‘zalliklarini ko‘ra bilishi bilan birga, o‘z zimmasidagi mas‘uliyatni ham unutmasligidadir. Baxtga yetishish yo‘llari esa, hayotdagi kichik va katta ne‘matlarni qadrlash, maqsad va vazifalarni unutmaslik, ruhiy va moddiy dunyo o‘rtasida muvozanat saqlash, ongli yashash — ya‘ni har bir lahzani his qilib, shu bilan birga yo‘ldan chiqmaslikdir. Baxt — bu manzil emas, balki to‘g‘ri yashash usuli. Inson atrofidagi go‘zalliklarni ko‘ra olsa, lekin o‘z “ikki tomchi yog‘i” — ya‘ni hayotiy maqsadi va mas‘uliyatini ham unutmasa, u holda haqiqiy baxtga erishadi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, Paulo Koeloning rivoyati bilan “Susambil” ertagi mazmunan turli janrga mansub bo‘lsa ham, ikkalasida ham baxt izlash g‘oyasi markazda turadi. Ushbu rivoyati va “Susambil” ertagi turli uslubda yozilgan bo‘lsa-da, bitta muhim haqiqatni anglatadi: baxt inson tashqaridan topadigan narsa emas, balki uning o‘z hayotiga, qadriyatlariga va munosabatiga bog‘liq. Rivoyatda baxt — hayot go‘zalliklarini ko‘ra bilish bilan birga mas‘uliyatni unutmaslik, ya‘ni ichki muvozanatda yashash deb talqin qilinadi. “Susambil” ertagida esa baxt uzoq joylarda emas, balki insonning o‘z yurti, o‘z hayoti va boriga qanoat qilishida ekani ko‘rsatiladi. Shunday qilib, har ikki asar bir fikrda birlashadi: inson baxtli bo‘lishi uchun ham tashqi dunyoni qadrlashi, ham ichki dunyosini to‘g‘ri boshqara olishi kerak. Baxt — bu izlab topiladigan manzil emas, balki to‘g‘ri yashash va ongli munosabat natijasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**



1. Paulo Koelo. Baxt kaliti (rivoyat). [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
2. Susambil ertagi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari.
3. Qurbonov D . Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Fan, 2007
4. Muhammadjonova G, Jalolova Sh. Badiiy asar va muallif konsepsiyasi. 2023.